

**O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISHNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI****Rustamova Feruza Furkatovna**

Buxoro xalqaro universiteti,
ikkinchi bosqich magistranti
rustamovaferuza014@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni shakllantiruvchi asosiy omillarni tahlil etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda mamlakat iqtisodiyotida so‘nggi yillarda kuzatilayotgan barqaror o‘sh tendensiyalari, ularning tarkibiy manbalari hamda institutsional islohotlar bilan uzviy bog‘liqligi yoritib beriladi. O‘zbekiston iqtisodiy o‘shining muhim xususiyati sifatida davlatning faol ishtiroki, sanoatlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, investitsiya muhitining yaxshilanishi va eksport salohiyatining kengayishi alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, iqtisodiy o‘shda hududiy rivojlanish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli, inson kapitaliga qaratilgan siyosatning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada iqtisodiy o‘shining miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifat jihatlari, ya’ni bandlikni oshirish, daromadlar o‘shishi va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida umumilmiy va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Olingan xulosalar O‘zbekistonda uzoq muddatli va mustahkam iqtisodiy o‘shni ta’minlashda mavjud imkoniyatlar hamda dolzarb vazifalarni aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy o‘sh, barqaror rivojlanish, milliy iqtisodiyot, tarkibiy islohotlar, sanoatlashtirish, investitsiyalar, investitsion muhit, davlat ishtiroki, bozor mexanizmlari, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, eksport salohiyati.

Annotation: This article is devoted to identifying the peculiarities of economic growth in Uzbekistan and analyzing the main factors that shape them. The study highlights the sustainable growth trends observed in the country's economy in recent years, their continuous relationship with structural sources as well as institutional reforms. As an important feature of the economic growth of Uzbekistan, the active participation of the state, the acceleration of industrialization processes, the improvement of the investment environment and the expansion of export potential are highlighted. Also, the role of Territorial Development, Small Business and private entrepreneurship in economic growth, the importance of policies aimed at Human Capital are analyzed. As an important feature of the economic growth of Uzbekistan, the active participation of the state, the acceleration of industrialization processes, the improvement of the investment environment and the expansion of export potential are highlighted. Also, the role of Territorial Development, Small Business and private

entrepreneurship in economic growth, the importance of policies aimed at Human Capital are analyzed. In addition to quantitative indicators of economic growth, the article also considers its qualitative aspects, namely, the impact on employment growth, income growth and social stability. In the course of the study, methods of general and economic analysis were used. The conclusions drawn serve to determine the existing opportunities and current tasks in ensuring long-term and solid economic growth in Uzbekistan.

Keywords: Economic growth, sustainable development, national economy, structural reforms, industrialization, investments, investment environment, public participation, market mechanisms, small business, private entrepreneurship, export potential.

Аннотация: Данная статья посвящена выявлению особенностей экономического роста в Узбекистане и анализу основных факторов, их формирующих. В исследовании освещаются тенденции устойчивого роста, наблюдавшиеся в экономике страны в последние годы, их структурные источники, а также их тесная связь с институциональными реформами. Важной особенностью экономического роста Узбекистана является активное участие государства, ускорение процессов индустриализации, улучшение инвестиционного климата и расширение экспортного потенциала. Также будет проанализировано региональное развитие, роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономическом росте, значение политики, ориентированной на человеческий капитал. Важной особенностью экономического роста Узбекистана является активное участие государства, ускорение процессов индустриализации, улучшение инвестиционного климата и расширение экспортного потенциала. Также будет проанализировано региональное развитие, роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономическом росте, значение политики, ориентированной на человеческий капитал. Помимо количественных показателей экономического роста, в статье также рассматриваются его качественные аспекты, а именно влияние на рост занятости, доходов и социальную стабильность. В ходе исследования были использованы методы общего и экономического анализа. Сделанные выводы служат для определения существующих возможностей и текущих задач по обеспечению долгосрочного и устойчивого экономического роста в Узбекистане.

Ключевые слова: Экономический рост, устойчивое развитие, национальная экономика, структурные реформы, индустриализация, инвестиции, инвестиционная среда, участие общественности, рыночные механизмы, малый бизнес, частное предпринимательство, экспортный потенциал.

KIRISH

O'zbekistonning rivojlanish dinamikasi va tendensiyalari bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida kechayotgan o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Mustaqillik yillarida boshlangan islohotlar jarayoni tobora chuqurlashib, hozirgi davrda yangi bosqichga ko'tarilganini kuzatish mumkin. Iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Shu bois O'zbekistonning rivojlanish dinamikasi ichki imkoniyatlar va tashqi omillarning uyg'unlashuvi natijasida shakllanmoqda.

So'nggi yillarda iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida sanoat ishlab chiqarishi, xizmat ko'rsatish sohasi va qishloq xo'jaligi faoliyati muhim rol o'ynadi. Raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishi, innovatsion loyihalarga e'tiborning ortishi mamlakat taraqqiyotiga yangi sur'at berdi. Shu bilan birga, energetika, transport va infratuzilma sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari ichki bozorni barqarorlashtirish bilan birga, eksport salohiyatini oshirish imkonini bermoqda. Bu esa iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy sohada ham sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Aholining turmush darajasini oshirish, bandlikni ta'minlash, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, kambag'allikni qisqartirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va gender tengligini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning rivojlanish tendensiyalarida hududiy siyosat ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning barcha hududlarini muvozanatli rivojlantirish, viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan. Ayni paytda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani yaxshilash bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bu esa ichki bozorning kengayishiga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatida ham muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston xalqaro hamkorlik doirasini kengaytirib, qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirmoqda. Jahon bozoriga integratsiyalashish, chet el investitsiyalarini jalb etish va eksport geografiasini kengaytirish jarayoni mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta'minlayapti. Bu borada transport-kommunikatsiya loyihalari, xalqaro savdo koridorlari va yangi logistika yo'nalishlari

O'zbekistonning mintaqaviy markaz sifatidagi o'rnini mustahkamlashga yordam bermoqda.

Madaniy-ma'naviy rivojlanish ham umumiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, aholining ongini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish jarayonlari tezlashmoqda. Yoshlarning ilm-fanga, innovatsiyaga qiziqishi ortib borayotgani, xalqaro ta'lim dasturlarida faol ishtirok etayotgani kelajakdagi rivojlanishning sifat darajasini belgilab bermoqda. Shu jihatdan, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar mamlakat taraqqiyotining asosiy tayanchlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Rivojlanish dinamikasining muhim jihatlaridan yana biri barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdir. O'zbekistonning ichki siyosatida ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhim tamoyillar sifatida mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik masalasi ham dolzarb bo'lib, yashil iqtisodiyotga o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qator strategiyalar ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o'sish masalasi iqtisodiy nazariyaning eng markaziy va ko'p qirrali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy o'sishning manbalari, omillari, sifat ko'rsatkichlari hamda tarixiy rivojlanish bosqichlarini chuqur yoritib beradi. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishda jahon va milliy iqtisodiy tafakkur namoyandalarining ilmiy qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sishni tarixiy-statistik nuqtai nazardan o'rganishda A.Maddisonning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Uning jahon iqtisodiyoti bo'yicha uzoq muddatli statistik ma'lumotlarga asoslangan ishlari iqtisodiy o'sish sur'atlari va farqlarini mamlakatlar kesimida solishtirish imkonini beradi. Maddison iqtisodiy o'sishni faqat ishlab chiqarish hajmlarining ortishi sifatida emas, balki institutsional rivojlanish, texnologik taraqqiyot va inson kapitali bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin qiladi [1]. Ushbu yondashuv O'zbekiston iqtisodiy o'sishining o'ziga xos jihatlarini aniqlashda, ayniqsa, islohotlar davrida yuzaga kelgan strukturaviy o'zgarishlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy iqtisodiy o'sish nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan S.Kuznets iqtisodiy o'sishni uning sur'atlari, tarkibi va tarqalish mexanizmlari orqali tahlil qiladi. Uning ilmiy qarashlarida iqtisodiy o'sish uzoq muddatli jarayon sifatida qaralib, bunda sanoatlashtirish, urbanizatsiya, daromadlar tarkibidagi o'zgarishlar va ijtimoiy tengsizlik masalalari muhim o'rin egallaydi [2]. Kuznetsning yondashuvi O'zbekistonda iqtisodiy o'sish jarayonining bosqichma-bosqich xususiyatlarini,

ayniqsa agrar iqtisodiyotdan sanoat va xizmatlar sektoriga o'tish jarayonlarini tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sishning klassik siyosiy iqtisod doirasidagi talqini K.Marks asarlarida chuqur yoritilgan. Uning kapitalistik ishlab chiqarish usuli, qo'shimcha qiymat va jamg'arish jarayonlari haqidagi qarashlari iqtisodiy o'sishning ichki mexanizmlarini tushuntirishga qaratilgan. Marks iqtisodiy o'sishni ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va kapital jamg'arilishi bilan bog'lab, bu jarayonda mehnat unumdorligi va texnologik taraqqiyotning rolini alohida ta'kidlaydi [3]. Ushbu nazariy yondashuv O'zbekiston sharoitida iqtisodiy o'sishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlar, investitsiya jarayonlari va ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy o'sish muammolarini chuqur tahlil qilgan olimlardan biri I.M.Tenyakov hisoblanadi. Uning ilmiy ishlarida iqtisodiy o'sish manbalari va omillari bilan bir qatorda, uning sifati masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Tenyakov iqtisodiy o'sishning faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ijtimoiy farovonlik, bandlik, innovatsion faollik va barqarorlik bilan baholanishi lozimligini ta'kidlaydi [4]. Bu yondashuv O'zbekiston iqtisodiy o'sishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda, ayniqsa, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modelini tahlil qilishda dolzarb hisoblanadi.

Milliy iqtisodiy tafakkur doirasida iqtisodiy o'sish masalalari Sh.Sh.Shodmonov tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiyot nazariyasi darsligida keng yoritilgan. Ushbu asarda iqtisodiy o'sishning nazariy asoslari, omillari va modellari bozor iqtisodiyoti sharoitida tahlil qilinadi. Muallif iqtisodiy o'sishda resurslardan samarali foydalanish, institutsional muhit va davlat iqtisodiy siyosatining ahamiyatini ta'kidlaydi [5]. Ushbu qarashlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning o'sishga ta'sirini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

T.T.Jo'rayev va M.A.Hamdammov tomonidan yaratilgan iqtisodiyot nazariyasi darsligida iqtisodiy o'sish zamonaviy bozor munosabatlari nuqtai nazaridan yoritiladi. Mualliflar iqtisodiy o'sishni makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va raqobat muhitining rivoji bilan bog'laydi [6]. Ushbu yondashuv O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi va ichki omillarning o'zaro ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixiga bag'ishlangan Sh.X.Tashmatovning asarida iqtisodiy o'sish haqidagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi yoritiladi. Klassik, neoklassik va zamonaviy iqtisodiy maktablar doirasida iqtisodiy o'sishga berilgan yondashuvlar tahlil qilinadi [7]. Ushbu asar iqtisodiy o'sish nazariyalarini solishtirish va O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish modelining nazariy asoslarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

M.A.Mamatovning iqtisodiy o'sishga bag'ishlangan o'quv qo'llanmasida iqtisodiy o'sish tushunchasi, omillari va ko'rsatkichlari tizimli ravishda yoritilgan. Muallif iqtisodiy o'sishda investitsiyalar, texnologik yangilanish va inson kapitalining rolini alohida ta'kidlaydi [8]. Ushbu yondashuv O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, modernizatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va baholashda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarni tizimli va mantiqiy tahlil qilishga tayangan holda shakllantirildi. Avvalo, iqtisodiy o'sish tushunchasining nazariy asoslari o'rganilib, turli iqtisodiy maktablar va olimlarning qarashlari solishtirma tahlil qilindi. Bu orqali iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ilmiy asos yaratildi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usullaridan foydalanilib, O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari umumlashtirildi. Statistik ma'lumotlarni o'rganish orqali yalpi ichki mahsulot o'sishi, tarmoqlar kesimidagi o'zgarishlar, investitsiya faolligi hamda tashqi savdo ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy yondashuv asosida O'zbekiston iqtisodiy o'sish modelining ayrim rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan o'xshash va farqli jihatlari aniqlab berildi.

Tadqiqotda induksiya va deduksiya usullari orqali alohida iqtisodiy ko'rsatkichlardan umumiy xulosalar chiqarildi hamda umumiy nazariy qarashlar asosida aniq amaliy holatlar izohlandi. Iqtisodiy islohotlar, davlat siyosati va institutsional o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri sabab-oqibat bog'liqligi asosida yoritildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tendensiyalari modernizatsiya, raqamlashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, xalqaro integratsiyani kuchaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan belgilanmoqda. Bu jarayonlarda davlat va jamiyatning hamkorlikdagi faoliyati, aholining ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanish dinamikasi ichki resurslardan samarali foydalanish va tashqi imkoniyatlardan oqilona foydalanishga asoslangan bo'lib, bu mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqmoqda.

O'zbekistonning rivojlanish dinamikasi va tendensiyalarini o'rganishda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni tahlil qilish zarur. Chunki mamlakat taraqqiyotining umumiy manzarasini tasavvur qilish uchun faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki ijtimoiy hayot sifati, xalqaro maydondagi faollik, ilm-fan va ta'lim tizimining rivojlanishi, ekologik xavfsizlik va hududiy tenglik kabi jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik

yillarida O‘zbekiston asta-sekinlik bilan markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tdi, bu esa jamiyat hayotining barcha jabhalarida yangi dinamika yuzaga keltirdi. Ayniqsa, 2017 yildan keyingi davrda mamlakatda yangilanish jarayonlari tezlashdi, islohotlarning mazmuni chuqurlashdi va ularning natijalari xalqaro miqyosda ham e’tirof etila boshladi.

Dinamik rivojlanish, avvalo, barqaror iqtisodiy o‘rinishda namoyon bo‘ldi. Yalpi ichki mahsulot hajmining muntazam ortib borishi, yangi sanoat tarmoqlarining shakllanishi va xizmat ko‘rsatish sektorining kengayishi iqtisodiyotda sifat o‘zgarishlariga olib keldi. Bu jarayonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish muhim omillar bo‘ldi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning demografik salohiyati ham rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri bo‘lib, yoshlar ulushi yuqori bo‘lgani sababli mehnat bozori doimiy ravishda yangi imkoniyatlarni talab qilmoqda. Bu esa bandlik siyosatini yanada faollashtirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy hayotda esa aholining turmush darajasini oshirish, infratuzilmani yangilash, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi davlat xizmatlaridan foydalanishda qulayliklar yaratmoqda. Elektron hukumat tizimining shakllanishi, masofaviy ta’lim va sog‘liqni saqlashning raqamli tizimlarga o‘tishi zamonaviy tendensiyalar sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari, tashqi siyosat va xalqaro aloqalardagi faollik ham O‘zbekistonning rivojlanish jarayonida alohida o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda mamlakat mintaqaviy hamkorlikda faol ishtirok etib, global iqtisodiyotga integratsiyalashuv yo‘lida qadamlar tashlamoqda. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali xalqaro savdodagi mavqeni oshirish, yangi bozorlarni egallash va investitsiyalar oqimini ko‘paytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, ekologik xavfsizlik masalalari ham rivojlanishning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Iqlim o‘zgarishi va suv resurslarining cheklanishi sharoitida O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e’tiborni kuchaytirib, ekologik barqarorlikni ta’minlashga intilmoqda. Bu jarayon nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki kelajak avlodlar uchun xavfsiz yashash muhitini yaratishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, O‘zbekistonning rivojlanish dinamikasi ko‘p qirrali bo‘lib, unda iqtisodiy o‘rinish, ijtimoiy barqarorlik, raqamli transformatsiya, xalqaro hamkorlik va ekologik xavfsizlik kabi ustuvor yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘unlashib ketmoqda. Quyida keltiriladigan jadvalda ana shu jarayonlarning asosiy yo‘nalishlari, ko‘rsatkichlari va tendensiyalari umumlashtirilgan holda yoritamiz (1-jadval):

1-jadval

O'zbekistonning rivojlanish dinamikasi va tendensiyalari¹

Yo'nalish	Rivojlanish dinamikasi	Asosiy tendensiyalar
Iqtisodiyot	Yalpi ichki mahsulot hajmining barqaror o'sishi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, xizmatlar sektorining tez sur'atlarda rivojlanishi	Innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, iqtisodiy diversifikatsiya, eksport salohiyatini oshirish
Ijtimoiy soha	Aholining turmush darajasi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi	Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash
Raqamli transformatsiya	Elektron hukumat tizimining rivojlanishi, onlayn xizmatlar sonining ortishi, bank va moliya tizimining raqamlashtirilishi	Raqamli iqtisodiyotning kengayishi, korrupsiyani kamaytirish, samaradorlikni oshirish
Tashqi iqtisodiy aloqalar	Xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi, mintaqaviy va global savdodagi faollikning oshishi	Transport-logistika tizimini rivojlantirish, yangi bozorlarni egallash, integratsiya jarayonlariga qo'shilish
Ekologiya va resurslar	Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tibor kuchayishi, suv resurslaridan samarali foydalanish choralari	Ekologik barqarorlikni ta'minlash, yashil iqtisodiyotga o'tish
Hududiy rivojlanish	Hududlarda sanoat zonalarining tashkil etilishi, infratuzilma obyektlari qurilishi	Hududiy tenglikni ta'minlash, mahalliy iqtisodiy salohiyatni kengaytirish
Inson kapitali	Oliy ta'lim muassasalari sonining ortishi, yoshlarning startap loyihalarda ishtiroki	Innovatsion fikrlashga ega kadrlar tayyorlash, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash

Yuqoridagi jadval O'zbekistonning rivojlanish dinamikasi va asosiy tendensiyalarini umumlashtirib beradi. Avvalo, iqtisodiyot yo'nalishiga e'tibor qaratilsa, mamlakatda yalpi ichki mahsulot hajmining muntazam o'sishi kuzatilmoqda. Bu jarayon asosan sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, xizmatlar sektorining

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

rivojlanishi va qishloq xo'jaligida samaradorlik oshishi bilan izohlanadi. Biroq iqtisodiyotdagi eng muhim tendensiya diversifikatsiya hisoblanadi, ya'ni faqat xomashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish jarayoni jadallashmoqda.

Ijtimoiy sohada esa aholining turmush darajasi asta-sekinlik bilan oshib bormoqda. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish orqali aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy adolat tamoyillarining mustahkamlanishi, ijtimoiy himoya mexanizmlarining kengayishi jamiyat barqarorligiga xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya yo'nalishi esa mamlakat rivojlanishining yangi bosqichi sifatida namoyon bo'ldi. Elektron hukumat tizimining joriy etilishi, onlayn xizmatlarning ko'payishi va moliya-bank tizimining raqamlashtirilishi natijasida samaradorlik oshib, shaffoflik kuchaymoqda. Bu tendensiya korrupsiyaga qarshi kurashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha O'zbekistonning mintaqaviy va global hamkorligi kengayib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologiyalar transferini amalga oshirish imkonini bermoqda. Transport-logistika tizimining rivojlanishi esa mamlakatning tranzit salohiyatini oshirib, yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini ochmoqda.

Ekologiya va resurslardan foydalanishda esa barqarorlik masalasi dolzarbdir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, yashil iqtisodiyotga o'tish kelgusida xalqaro talablarga moslashish uchun muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Hududiy rivojlanishda sanoat zonalarining tashkil etilishi va infratuzilma obyektlarining qurilishi aholi bandligini ta'minlashga yordam bermoqda. Hududiy tenglikni ta'minlash orqali mamlakat bo'ylab iqtisodiy salohiyatni yanada kengaytirish maqsad qilinmoqda. Bu esa chekka hududlarda ham yangi imkoniyatlar yaratadi.


Inson kapitali esa barcha yo'nalishlarning poydevorini tashkil etadi. Oliy ta'lim muassasalarining soni ortayotgani, yoshlarning startap loyihalarga jalb qilinishi va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mamlakatda innovatsion muhitni shakllantirmoqda. Bu tendensiya kelgusida O'zbekistonning raqobatbardosh kadrlar salohiyatini ta'minlaydi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning rivojlanish dinamikasi bir yo'nalishda emas, balki kompleks tarzda amalga oshmoqda. Iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, raqamli transformatsiya, tashqi aloqalar, ekologiya, hududiy rivojlanish va inson kapitali bir-birini to'ldirib, umumiy barqarorlikni ta'minlamoqda. Shu bois, mamlakat kelajakda zamonaviy, innovatsion

va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilayotgan o'sish dinamikasi mamlakatning barqaror rivojlanish yo'lidan borayotganidan dalolat beradi. Yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotining yarim yillik o'sish darajasi barqaror o'sish yo'nalishida harakatlanmoqda. Bu o'sishda ichki ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, yangi texnologiyalarning joriy qilinishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining amalga oshirilishi va eng muhimi, xorijiy investitsiyalar oqimining ortib borishi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, 2025-yilning dastlabki olti oyida iqtisodiyot 6,7 foizga o'sdi. Bu ko'rsatkich so'nggi yillarning eng yuqori natijasi bo'lib, mamlakatda investitsiya muhitining yaxshilanishi, eksport salohiyatining kengayishi va ichki bozor talabining ortishi bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan ajratilgan mablag'lar ham iqtisodiy faollikka sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Quyidagi rasmda 2021-2025 yillarda O'zbekistonning yarim yillik iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari aks ettirilgan bo'lib, ular mamlakat rivojlanishidagi ijobiy tendensiyalarni ko'rsatib beradi (1-rasm):



1-rasm. O'zbekistonning yarim yillik iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, 2021-2025 yillar [9]

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi besh yil davomida sezilarli darajada o'sib kelmoqda. 2021-yilda yarim yillik o'sish 6,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yilda bu ko'rsatkich 5,4 foizgacha pasaygan. Bunday pasayish, asosan, pandemiya oqibatlari va global iqtisodiy muammolarga bog'liq bo'lib, mamlakat ichki bozori va eksport imkoniyatlariga ma'lum darajada bosim ko'rsatgan.

Biroq 2023-yildan boshlab iqtisodiy o'sish yana tiklana boshladi va 5,6 foizni tashkil etdi. Bu esa ishlab chiqarish va xizmatlar sektorida barqarorlikning kuchayishi, investitsion loyihalarning kengayishi hamda tashqi bozorlar bilan integratsiya jarayonlarining faol kechayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda esa o'sish sur'ati 6,4 foizgacha ko'tarilib, yanada ijobiy dinamika qayd etildi. Bu davrda, xususan, davlatning iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishi, infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Eng yuqori natija 2025-yilda kuzatildi – 6,7 foiz. Bu ko'rsatkich mamlakatning barqaror va izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. Xorijiy investitsiyalar ulushi sezilarli darajada oshgani, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining iqtisodiyotga yo'naltirilgani va ichki talabning o'sishi ushbu natijaga erishishda asosiy omillar bo'ldi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda iqtisodiy o'sish so'nggi yillarda barqarorlik va sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, bozor mexanizmlarining bosqichma-bosqich joriy etilishi hamda davlatning iqtisodiy jarayonlardagi roli qayta ko'rib chiqilishi iqtisodiy o'sishning o'ziga xos modelini shakllantirmoqda. Ushbu modelda sanoatlashtirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xususiy sektor faolligini oshirish va investitsion muhitni yaxshilash muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, iqtisodiy o'sishning ichki manbalariga tayanish, milliy resurslardan samarali foydalanish va inson kapitalini rivojlantirishga e'tibor qaratilayotgani O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishga davlat tomonidan olib borilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik siyosati, moliyaviy tizimni mustahkamlash, soliq-budjet mexanizmlarini takomillashtirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun mavjud muammolarni bartaraf etish zarurati ham saqlanib qolmoqda. Xususan, ayrim tarmoqlarda ishlab chiqarish samaradorligining pastligi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish tafovutlari va innovatsion faollikning yetarli darajada emasligi iqtisodiy o'sish sur'atlariga cheklov bo'lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, maqola mavzusi bo'yicha bir qator amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda xususiy sektor rolini yanada kuchaytirish zarur. Buning uchun tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirish va raqobat muhitini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishini ta'minlash maqsadida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish lozim. Ilm-fan,

ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish mumkin.

Shuningdek, hududiy iqtisodiy rivojlanishni muvozanatlashtirish iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Hududlarning tabiiy, mehnat va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda maxsus rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish, bandlikni ta'minlash va mehnat unumdorligini ko'tarish orqali iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli asoslarini mustahkamlash zarur. Umuman olganda, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va ilgari surilgan takliflarni amaliyotga joriy etish mamlakatning barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maddison A. The World Economy: Historical Statistics. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 2003. 274 pages.
2. Kuznets S. Modern Economic Growth: Rate, Structure and Spread. Yale University Press, 1966. 524 pages.
3. Маркс К. Капитал. Критика политической экономии. Том I. – Москва: Политиздат, 1978. – 902 с.
4. Теняков И.М. Современный экономический рост: источники, факторы, качество. Монография. - М.: МГУ, 2015.
5. Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2021. 768 bet.
6. T.T.Jo'rayev, M.A.Hamdammov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2024. 504 bet.
7. Sh.X.Tashmatov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021 - 504 b.
8. M.A.Mamatov. Iqtisodiy o'sish. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021 - 384 b.
9. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti